XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 8-may VII-10-51-9-132-K/25 Yangiyer shahar

Yangiyer shahrida Navro‘zobod, Temur Malik, Yuksalish mahalla fuqarolar yig‘inlarida ayrim nomlari takrorlangan ko‘chalarga yangi nomlar berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori va Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan Yangiyer shahridagi 3 ta mahalla, jami 6 ta ya’ni 5 ta ko‘cha, 1 ta tor ko‘cha ko‘chalarning nomlari o‘rganilib chiqilib, 2025-yil 16-apreldagi 05-19-5975-sonli xatiga asosan ijobiy xulosa berildi. Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 16-apreldagi 05-19-5975-sonli yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangiyer shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan nomlari takrorlangan ayrim ko‘chalar qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 16-apreldagi 05-19-5975-sonli yig‘ilish bayoni qarori bilan taklif etilgan ko‘chalar nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Shahar Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Xolbutayev), shahar Adliya bo‘limi (X.Sayitov), shahar Statistika bo‘limi (N.Xo‘janbayev), shahar Soliq inspeksiyasi (A.Bekmatov), O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi shahar bo‘limi (I.Sayfiddinov), Davlat kadastrlar

palatasi Yangiyer shahar filiali (U.Djumanov), shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Abdusalomov) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

-mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimining o‘rinbosariJ.Egamberdiyev, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi shahar bo‘limi (I.Sayfiddinov)ga:

- 10 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida homiy tashkilotlar yordamida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish vazifalari yuklansin.

5. Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiya (J.Egamberdiyev), O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi shahar bo‘limi (I.Sayfiddinov) va fuqarolar yig‘inlari raislari bilan hamkorlikda:

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Shahar Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Xolbutayev)ga:

- shahar hududlaridagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi pasport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

7. Shahar hokimligi Axborot matbuot xizmati I.Rahmonqulovga;

- hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlar bersin.

8. “Yangiyer hayoti” gazetasi tahririyati (A.Abduqodirov)ga ushbu qarorni “Yangiyer hayoti” gazetasi rasmiy nashrida e’lon qilinsin.

9. Shahar hokimi o‘rinbosari J.Egamberdiyev mazkur qaror bilan bog‘liq hujjatlar geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etish belgilansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Djulibayeva va shahar hokimining o‘rinbosari J.Egamberdiyev zimmalariga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror "Yangiyer hayoti" gazetasida rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi

KOMILOV
JAMOLIDDIN
KARIMJONOVICH

Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining
2025-yil 8-maydagi
VII-10-51-9-132-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yangiyer shahrida Geografik obyektlarni inventarizatsiyadan o‘tkazilgan hamda tasdiqlangan qayta nomlangan Geografik obyektlar RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Ko‘cha	Navro‘zobod mahallasi	Minor	Ulug‘yo‘l, Mo‘tabar, Osuda	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Takliflardan **Osuda** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	Navro‘zobod mahallasi	Chaman	Ulug‘niyat, Tarovat, Ulug‘vorlik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Takliflardan **Tarovat** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	Temur Malik mahallasi	Birlik	Xalqparvar, Islohot, Nurlihayot	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Takliflardan **Islohot** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	Yuksalish mahallasi	Birdamlik	Ehtirom, Ishonch, To‘g‘rilik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Takliflardan **Ehtirom** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Tor ko‘cha	Yuksalish mahallasi	Birdamlik	Ehtirom, Ishonch, To‘g‘rilik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Takliflardan **Ehtirom** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

6.	Koʻcha	Yuksalish mahallasi	Fidokor	Yangi Iqbol, Tamaddun, Oshyon	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Takliflardan **Tamaddun** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.